

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 28-iyul, chorshanba № 30 (9355)

Xalq ziyolilari gazetasi

MILLIY O'QUV DASTURI: TAHLILLAR VA TAKLIFLAR

yoxud yomg'irdan qochib, do'lga tutildikmi?

Dars ham
ötaylik!!!

2-2-betlar



Bolaga huquqiy
tarbiyani
kim beradi? 10-bet



Yigitlarimiz zo'r o'ynadi

24-iyul kuni Rossiyaning Sochi shahrida davom etayotgan shaxmat bo'yicha Jahon kubogi musobaqasida so'nggi vakilimiz Nodirbek Abdusattorov uchun 1/16 final bosqichi oxirgi bosqich bo'ldi. Tay-breykda raqibi ustunlik qildi.

23-iyul kuni Javohir Sindorov ham 4-bosqichda kurashni to'xtatgan edi. Ammo yigitlarimiz O'zbekiston shaxmati tarixida yangi sahifa ochib bo'lishdi. O'zbek shaxmatchilar shu kunga dovur Jahon kubogi 1/16 bosqichiga chiqishmagani edi. Bu ishlasi hali maktab o'quvchisi bo'lgan qorako'zlar — nodir ist'e'dod sohibi Nodirbek va o'zbeginning javohiri Javohir uddaladi! Yana — musobaqaning 7-raqamli, FIDE reyting jadvalida 8-o'rinda bo'lgan Anish Girini Nodirbek Abdusattorov, 8-raqamli, FIDE reyting jadvalida 12-o'rinda turgan Alireza Feruzjani Javohir Sindorov, 9-raqamli, FIDE reyting jadvalida 13-o'rinni egallab turgan Lenyer Dominges Peresni Jahongir Vohidov musobaqadan chiqarib yuborib, o'ziga xos sensatsiya ko'tarishdi! Chunki Nodirbekning reytingi Girinikidan 142, Javohirming reytingi Feruzjanikidan 201, Jahongirning reytingi Dominges Peresnikidan 224 ball kam edi!



O'zbek shaxmatining oltin avlodи, Jahon kubogi ishtirokchilari — Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Shamsiddin Vohidov va Jahongir Vohidov keyinги xalqaro musobaqalarda, jumladan keyingi yili bo'ladigan Jahon shaxmat olimpiyasiida yuksak natijalarga erishishiga ishonamiz!

Yigitlar! 1992-yili erishilgan natijani yaxshilash vaqt keldi. Biz sizga ishonamiz!

O'qituvchilarni
rag'batlantirish
mezoni tadbirbozlikka
asoslanmasin! 4-bet



Nega folkloriga
qiziqish susayib
bormoqda? 12-bet



Dolzarb mavzu

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to 'g'nisida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi" qabul qilindi. Bu mamlakatimizda davlat tili to 'g'nisidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e tiborini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamiz uzlusiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim asosiy tayanch bosqich bo'lib, bu bosqichda o'zbek tilidan o'quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og'zaki va yozma muloqot olib bora olishlari ga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o'qitishning kommunikativ-nutqiyl tamoyili asosida o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalarni muloqot faoliyatini jarayonida qo'llash malakasi shakllantiriladi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda tahlis oluvchi turli millat vakillariga esa o'zbek tilini o'qitish bilan bir qatorda o'zbek xalq og'zaki ijodi, zamonaviy va mumtoz adabiyoti namunalari bilan tanishdirib boriladi. Shu maqsadda ushbu maktablarda adabiy o'qish darslari uchun qo'shimcha soatlar ajratilgani ham ni-hoyatda to 'g'ri qaror bo'ldi. Bugungi kunda ta'limming eng asosiy tayanch bo'g'ini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilayotgani va "Milliy o'quv dasturi" deb nomlanishining o'zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o'zbek tilini intensiv o'rgatishni ta'minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifa-laridan biriga aylandi.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa o'qituvchi obro'sini ko'tarishga qaratilgan sa'y-harakatlar va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan juda xursandmiz. Biroq tan olish kerakki, ta'lim samadarligi ko'p jihatdan o'quv-uslubiy dasturlar va darsliklar saviyasiga ham bog'liq. Xususan, respublikamizda keyingi yillarda til savodxonligi va nutq madaniyatining keskin pasayib ketganligi, nafaqat og'zaki, hatto yozma nutqda ham o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilinmayotganligi, husnixatga umuman e'tibor qaratilmayotganligi, o'quv dasturlaridan insho, bayon, diktant kabi yozma ish turlarining deyarli chiqib ketganligi, darsliklarda faqat tayyor matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlari berilayotganligining mevusi emasmi?! Yakuniy nazorat ishlarining test shakliga o'tkazilishi o'quvchilarni ijodiy fikrash, bog'la-nishli nutq tuzish, savodli va chiroylar yozish ko'nikma-malakalarini egallashga bo'lgan intilishlarini umuman yo'qqa chiqardi. Bugungi kunda umumta'lim maktablari bitiruvchilariga qaraganda, ularning 50-60 yoshshi buvi-buvalari savodiroq va chiroyliroq yozadilar.

Shu bois, yangilanayotgan o'quv dasturlariga katta umid bilan qaralmoqda. Milliy o'quv dasturlari saytlarga qo'yilishi bilan uning mazmuni va uslubiy yo'nalihi bilan tanishib chiqshga harakat qildik.

"Oqtosh" sanatoriysida dam olayotgan bir guruh maorif xodimlari, til va adabiyot o'qituvchilar va o'z farzandalaring yaxshi ta'lim olishi tarafdir bo'lgan ota-onalar shu masala ustida suhbatlashib qolishdi. Oromgohning salqin ayvonchasida o'zaro fikrlashish dan boshlangan davra suhbatni tobora kengayib, aytish joiz bo'lsa, ilmiy-amalni seminar tusini oldi. Tasodifiy uchrashib qolgan ushbu jamoa tarkibida 40 yillardan ortiq pedagogik tajribaga ega bo'lgan maorif xodimlari, o'zbek tili o'qituvchilar, olimlar, o'z farzandining taqdirdiga befarq bo'Imagan ota-onalar, o'quvchilar bor edi. Ular bir maqsad uchun birlashib, ikki kun davomida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" fanidan tuzilgan Milliy o'quv dasturini o'rgandilar va bandma-band tahlil qildilar.

Suhbatning avvali ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va o'rta maxsus ta'lim bo'g'ini larida davlat tilining o'qitilishi, amalidagi "O'zbek tili" dasturlari va darsliklaridagi mavjud kamchiliklar, ularni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalardan boshlandi. Farzandlarini rus maktabida o'qitayotgan ota-onalar shu maktablar uchun yozilgan darsliklardagi matnlarda kam qo'llanadigan so'zlarining ko'p uchrashi, bolalar yoshiga mos she'rlarning kamligi, qo'yilgan topshiriqlarning murakkabligi kabi kamchiliklarni sanay ketdilar. Suhbatimizga qulog tutib turgan bir guruh yoshlar esa maktabda o'qib yurgan vaqtlarida o'zbek tili fani ular uchun eng oson fan hisoblanligi, faqat qoidalarni o'zlashtirishda biroz qiyinchilik sezishganligini, o'zbek tili o'qituvchisi ko'p vaqtini shu sinfa o'qiydigan boshqa millat vakillari bilan (ular atigi 4 ta ekan) alohida shug'ullanishga sarflaganligi tufayli ular yangi bilimlar ololmaganliklarni aytishdi. Biroq, Uchtepa tumanidagi 107-maktabning sobiq o'quvchisi Diyor Shotursunovning fikricha, asosiy qiyinchilik kollejiga kirgandan so'ng boshlanibdi va u buni shunday izohladidi:

— Men o'zbek tilining o'z tuzilishi, orfoepik va orfografik me'yorlarib berilishini kollejga kirganimdan so'ng bildim va ularni o'zlashtirish uchun rosa qiyaldim. Agar maktabda bu fanni o'quvchilarining tilni bilish darajasi qarab tabaqałashtirib o'qitishganda, shuncha vaqtimni besamar o'tkazma-

Milliy o'quv dasturi: yoxud yomg'irdan qochib,

gan va ayni kunlarda bunchalik qiynal-magan bo'lardim.

Ushbu fikr-mulohazalar yig'ilganlarni yangi dasturda bu kamchiliklar qanday yechim topdi, bolalarimiz oson va qulay yo'l bilan o'zbek tilini egalashlari uchun qanday o'zgarishlar joyi etildi, degan savollar girdobiga tortdi va yangi dastur loyihasini sinchiklab o'rganishni boshlashdi. Endi esa dastur mazmuni bilan tanishganlar fikri bilan tanishing:

Ma'refat ABDURAHIMOVA, Yangiyo'l shahridagi nafaqadagi pedagog:

— 42 yillik ish tajribamga tayanib aytta olamanki, dastur bunday tuzilishi maydi. Unda na soatda, na mavzular da aniqlik bor. O'zbek tili – bu alohida fan. Boshqa fanlar kabi uning ham o'z tuzilishi, me'yorlari bor. Bu dasturni o'qigan kishi o'zbek tili haqida mutlaqo tasavvurga ega bo'lmaydi. Hamma nar-sa aralash-quralash berib tashlangan. Keyingi mavzuning avvalgi mavzu bilan qanday bog'liqligi bor, nima asosda shu ketma-ketlikda berilgan, qaysi ma'lumot yangi berilyapti, qaysini takror berilyapti, mutlaqo tushunarsiz. 2-, 3-sinflariga berilgan mavzu aynan shu shaklda 7-, 8- hatto 10-sinflarida ham berilyapti. Qanday qilib bu holatda bolalarning bilimini kengaytirish mumkin?

Bu yerda maktab bitiruvchilarining gaplarini eshitib turib, o'zim rahbarlik qilgan maktabda ham rus guruhlari-da turli millat vakillari o'qishlari, ular orasida turkiy tilli millatlar va o'zbek millati vakillari ko'p bo'lishi yodimga tushdi. Endi o'ylab qarasam, o'zbek tili darslarini o'quvchilarining til tajribasiga ko'ra turkiyabzon va rusiyabzon guruh-larga ajratib, har biri uchun mos tarzda tashkil etish kerak.

Feruza KARIMOVA, Uchtepa tumanidagi "Orom" bog'cha-maktabi metodbirlashmasi raisi, 27 yillik pedagogik stajga ega o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— O'zbek tilidan Milliy o'quv dasturi nutqiy mavzular galereyasidan iborat bo'libdi, xolos. Dasturda har bir mavzuda qanday nutqiy mavzu o'tiliishi va unda qaysi grammatik vositanini qo'llashga oid ma'lumot berilishi kerak. Shundan kelib chiqib, har bir mavzuda leksik va grammatik minimum berilishi kerak. Avvalgi dasturda har holda nutqiy mavzu ham, grammatik mavzu ham ma'lum bir uzyiylikda, osondon qiyinda qarab boradigan bosqichli ketma-ketlikda berilgan, har bir mavzuda berilgan leksik-grammatik material adabiy o'qish materiallari vositasida mustahkamlanib borilishi aniq ko'rsatilgan edi. Maktabda metod birlashma yig'ilishlarida rus guruhlarida dars beruvchi o'zbek tili o'qituvchilaridarsliklarda berilgan matnlari va she'rлarda qiyin so'zlar, o'tilmagan grammatik konstruksiylar ko'p uchrashi, ularni o'quvchilarga tarjima qilib tushunti-

rishda qiyinchiliklar mavjudligi, matn yaratish topshirig'i quiyi sinflar uchun juda og'irligi haqida e'tirozli fikrlarni bildirar edilar. O'zbek tili darslariga o'quchining yoshiga mos tarzda diktantning lug'at diktanti, saylanma diktant, ijodiy diktant kabi turlarini, bayon yozishni kiritish kerakligini qayta-qayta uqtirar edilar.

Yangi dasturga grammatica umuman kiritilmaganligi meni hayratda qoldiryapti. O'quvchi grammatic shakllar va vositalarni o'zlashtirma, so'zlarini to 'g'ri yoki noto 'g'ri bog'layotganini qayerdan biladi? Ajablanarlisi, dasturda, hatto o'zbek tilida so'zlarini bog'lashning asosiy vositasi bo'lgan kelishiklar haqida umuman ma'lumot berilmagan. Tushum keli-shigining qo'shimchasi -ni dasturga kiritilmagan, o'quvchi qachon -ni, qachon -ning qo'shimchasi qo'llashni bilishi va xatosiz yozishi uchun ularni farqlashga doir ma'lumotga ega bo'lishi kerak. -ga jo'naliish kelishigi qo'shimchasing -ka, -qa variantlari bor, ularni nutqda to 'g'ri qo'llashning o'z orfoepik va orfografik me'yorlari mavjud. Dasturda bu variantlar ham mutlaqo berilmagan. Ularni murakkab deb dasturga kiritishmagani bilan nutqdan chiqib ketmaydi-ku?

Har bir fanning o'z tuzilishi, shunga mos mavzulari bo'ladi. Grammatika tilning tuzilishini, tilni nutqda qo'llash vositalarini o'rgatadi. Shunday ekan, til o'qitishda, albatta, uning grammatisini ham berish shart. Faqat uni murakkab nazariy tarzda emas, oson tushuniladi-gan usulda berish kerak. Albatta, grammatic vositalar muayyan izchillikda berilishi ham kerak. Umuman, tuzuvchilar ushbu Milliy o'quv dasturini "Milliy dastur" deganda nimani nazarda tutishgan? Uning nimasi milliy? "Milliy" deb atalgan ushbu dasturda o'zbek tilining, hatto milliy strukturasi ham aks etmagan. Dastur matnida doktor (shifokor o'rniga), xobbi (qiziqish o'rniga), fantastika, mnemotexnika, kriptografiya, numizmatika kabi ko'plab chet tili so'zlarining, faktologik matn kabi tushunmaysiz atamalarining qo'llanganini qanday izohlash mumkin? Nazarimda, tuzuvchilar o'zbek tili emas, chet tili bo'yicha mutaxassis va ular chet tillar, asosan, ingliz tili qolipidan olib tuzilgan, to 'g'ri roq'i, chet tili dasturlaridan ko'chirib olingan. Buni ona tilimizga nisbatan xoinlik deb hisoblayman.

Maqsuda MUHAMEDOVA, na-faqadagi pedagog:

— Biz maktabda o'qigan vaqtimizda rus tili grammatisini yaxshi o'qitishgan edi. Endi o'ylasam, juda to 'g'ri qilishgan ekan, chunki haligacha rus tilida savoldi yozamiz va gapiramiz.

Yangi dasturni tuzuvchilar fanlararo aloqa degan tushunchaning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunmagani

tahlillar va takliflar

do'lga tutildikmi?

ko'rinadilar. Kimyo fani bilan fanlararo aloqa kimyoning mavzularini, fizika yoki matematika bilan fanlararo aloqa ushbu fanlar mavzularini til darsida o'tish degani emas-ku? Dasturdagi "Kislorod 02", "1+1=3", "360 gradus" kabi mavzularni til darsida o'tilishi o'qituvchilar tomonidan qanday qabul qilinarkin? Bu mantiqsizlik emasmi?

Bizningcha, dasturni mutlaqo tajribasiz, ta'lim sohasida kam yil ishlaganlar tuzishgan, to'g'riroq'i, dastur chet tili dasturlaridan no'nog tarjima qilingan.

Mashhura SULTONOVA, Uch-tepa tumanidagi 38-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi:

— Har bir fanni o'qitishning asosiy tamoyili osondon qyingina, oddiyidan murakkabga tomon borish hisoblanadi, biroq o'zbek tili fanidan tuzilgan ushbu Milliy dasturda bu tamoyilga mutlaqo rioya qilinmaganligi meni ajablantirdi. Har bir sinf dasturi 3 bo'limga bo'lib berilgan, biroq bu 4 chorak bo'yicha taqsimotga to'g'ri kelmaydi. Har bir bo'limga mavzularning ichki bo'linishi bir mavzu uchun kamida 8-10 soat ajratilishiga olib kelgani, grammatiskasi, adapbiy o'qishi bo'lmasa, o'qituvchi bitta nutqiy mavzvu bo'yicha 8-10 soat nimani o'tadi? Boz ustiga, yangi mayzudagi ko'p ma'lumotlar pastki sinflarda qayta-qayta berilgan.

Nilufar MIRSOATOVA, Yangiyo'l shahridagi 45-maktabning oliy toifalig' o'qituvchisi:

— 29 yıldan beri ta'lif rus tilida
olib boriladigan boshang'ich sinflarda
dars beraman. Bir narsaga juda ajabla-
naman: nega respublikamizning davlat
ili 2-sinfdan o'qitilishi kerak? Chet
illarini o'qitishni 1-sinfdan qilishning
mkoni bo'ldi-ku? Nega buni o'zbek
iliga nisbatan qo'llash mumkin emas.
Taajjublantiradigan yana bir narsa,
nega bizning darsliklarimiz chet tili
fanlaridagi kabi emas? Tajriba o'rga-
ish maqsadida chet tili darslarini ko'p
uzataman. Biz ham o'zbek tili fanini
-sinfdan o'yin tarzida, qo'shiqlar bilan
ashkil qilishimiz mumkin-ku? O'zbek
tili darsliklariga bolalarbop she'rlar,
navzularga mos qo'shiqlar kiritilsa,
darslarimiz jonli, qiziqarli bo'lsa bola-
arning o'zbek tilini o'rganishga qiziqi-
hi ortgan bo'lar edi.

Darsliklarda maqollar juda ko'pa
erilgan. Maqol aslida mazmuni ji-
atdan niroyatda murakkab, uning
ma'nosini tushunish boshqa millat
akillari uchun ancha qiyin, uni har
oim ham tarjima qilib bo'lmaydi.
Tushunish uchun boshlang'ich sinflar
darsliklariga maqollardan ko'ra, ertak-

Rus guruhlarida turli millatlar
akillari ta'lim olishgani uchun,
ening nazarimda, o'zbek tili darslarini
quvchilarning qaysi tilni bilishi, ya'n
tajribasi asosida (masalan, rusiyabzon
va turkiyabzon kabi) guruhlarga ajratib

tashkil qilish kerak. Darsliklar o'quv materiallariga boy bo'lса, o'qituvchi guruhga moslarini tanlab dars berishi oson bo'ladi. Buning uchun o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar kerak bo'ladi. Biroq o'zbek tili o'qituvchilar uchun yaratilgan o'qituvchi kitoblari shu darajada oz chopliteliladiki, hatto maktabga bir dona yo' yetib keladi yoki u ham yo'q. Metodik qo'llanmalar har bir o'qituvchining qo'liga yetib borishi va o'qituvchini izlanishga, ijodkorlikka undaydigan asosiy ishlitobiga aylanishi kerak.

Bizni o'ylantirib qo'ygan ushbu sa
vollarga javob topish uchun 50 yillardan
beri o'zbek tili ta'limi sohasida fidokor
lik bilan mehnat qilib kelayotgan peda
gogika fanlari doktori, professor
Xadicha MUXITDINOVAAgan yuz
landik:

— O'quv dasturi ta'limgaz qaysi yo'naliishda ketishini belgilab beradigan muayyan fan mazmunini ta'limgaz bosqichlari, umumta'limgaz sinflar kesimida uzviylik va uzlusizlikda taqsimlangan tarzda yoritilishini belgilab beradigan me'yoriy hujjat sanaladi. Shundan keilib chiqib, umumiy o'rta ta'limgaz bo'g'indan hisoblanuvchi ta'limgaz boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek til fani bo'yicha tuziladigan o'quv dasturi mazmun-mohiyati bilan o'zidan avvalgi maktabgacha ta'limgaz davom bo'lishi va ayni vaqtida o'zidan keyingi ta'limgaz bosqichlari uchun tayanch bo'lishi kerak. Bugungi kungacha o'zbek tilini fanidan tuzilgan o'quv dasturlarida ta'limgazning kommunikativ-nutqiy yo'naliishiga mos ravishda kompe-tensiiviy yondashuv asosida yildan tilga tilga kamotillashtirib kelindi. Ta'limgaz bosqichlari uchun mavzularni taqsimlashta tarkorlar, qaytarilar bo'limasligiga, bilimlarning osondon murakkabga qarab qanday o'stirib borishga jiddiy e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda uzuksiz ta'limizimida o'tkazilgan muhim islohotlar, xususan, bu maktabgacha ta'limni uzuksiz ta'limning birlamchi bo'g'inga aylantirilgani va bolalarga ta'lim berishni bog'cha yoshidan boshlab ro'lg'a qo'yilgani, albatta, o'quv dasurlarini yana qayta ko'rib chiqishni a tubdan yangilashni taqozo etadi. Ta'limni bolalarga kichik yoshidan o'shlash judo katta samaroy beradi.

oshlash juda katta samara beradi va
uni buyuk ajdodlarimiz misolida
o'rishimiz mumkin. Ushbu niyohat-
a to'g'i qaror tufayli bugungi kun-
a maktabgacha ta'lim tashkilotlarda
olalarga tillarni ilk bosqichdan o'qi-
sh boshlab yuborildi, rus guruhlarida
"zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus
Ilk qadam" dasturi ham tuzildi. Uz-
iyilik va uzlusizsiz talablariga ko'ra
ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan
muktablarda o'zbek tilini 1-sinfдан
bosqlab o'qitilishini yo'lga qo'yish ta-
b etiladi. Biroq bugungi kunda chet
tilarini o'rgatish 1-sinfdan boshlan-
ani holda, respublikamizning davlat



tilini 2-sinfdan boshlashning o'zi jiddiy xato bo'lsa, ikkinchi tomondan maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'zbek tili maxsus dastur asosida o'rnatilsa-da, o'zbek tilini o'qitishni 2-sinfdan boshlash uzlusizlik va uzyvlylik tamoyillari ga mutlaqo ziddir. Milliy o'quv dasturi, avvalo, ushbu islohotni amalga oshirishi kerak.

Bu o'rinda shumi ham qayd etib o'tish kerakki, maktab ta'limida chet tillarini o'qitish 1-sinfdan, ammo yozish amali esa 2-sinfdan boshlanadi. Natijada 2-sinfda lotin yozuvining 2 xil varianti (lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosи va ingliz tili alifbosи) o'rgatiladi. Lotin yozuvining 2 xil shakl uchun yarim yil vaqt berilishi, ya'ni ingliz va o'zbek orsografik qoidalarini bir vaqtda o'rganish natijasida o'quvchilar ushbu me'yoriy qoidalarni aralashdirib qo'llashga, bu esa yozma savodxonlikning keskin pasayib ketishiغا, husnixatga mutlaqo e'tibor bermaslikka olib kelmoqda. Biz o'zbek tilini o'qitishda 1-sinfning 1-yarmida faqat og'zaki nutq ustida ishlash bilan boshlashni, ya'ni o'quvchilarda avval to'g'ri talaffuz me'yorlarini shakllantirish va lug'at boyligini o'stirishni; 1-sinfning 2-yarmidan boshlab esa yozuvni o'rgatishni boshlashni taklif etamiz. Natijada, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar o'quvchilariga har bir yozuv ko'nikmasini puxta egallab olishlari uchun yarim yildan vaqt beriladi.

Milliy o'quv dasturida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan ikkinchi asosiy masala, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fami mamlakatimizda yashovchi turli millatlar vakillariga xorijiy til sifatida emas, til muhitida o'qitiladi. O'quvchilarning ko'philigi turkiyabzon, ko'philigi o'zbek. Shu jihatdand dastur tuzuvchilari tanlagan yondashuv — o'zbek tilini xorijiy til sifatida chet tili kabi o'qitish boriladigan maktablarda 80-90 foizga yaqin o'quvchilarning o'zbeklar ekanligi e'tibora olinsa, bu farzandlarimizni milliy qadriyatlarimizni bilmay ulg'a-yishlarining oldini olishga juda katta yordam beradi. Biroq Milliy o'quv dasturiga adapib o'qish materiallari mutlaqo kiritilmagani o'quvchilarni o'zbek adapib tili nodir namunalarini bilan tizimli ravishda tanishtirilmasligiga va ushbu qadriyatlar singdirilmasligiga olib keladi.

ta'lim boshqal tillarda olib boriladigan maktablar uchun aslo mos emas. Dastur o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishi kerak va beriladigan fanga oid ma'lumotlar takror va qaytariglarsiz osondon qiyinga tomon uzviylik va uzluksizlikda o'stirib borilishi kerak. Afsuski, tavsiya qilinayotgan Milliy o'quv dasturida uzviylik va uzluksizlikka mutlaqo e'tibor qaratilmagan, o'ng kechasi.

Aytilgan mulohazalar, o'zbek tili fanidan Milliy o'quv dasturi hali ancha ishlanishi, keng jamoatchilik tomonidan yanada ko'proq tahlil qilinishi, bildirilgan barcha talab va takliflar e'tiborga olingan holda pishiq-puxta tuzilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Farzandalarimiz taqdiri, millatimiz kelajagi, ona tilimizning qadri va nufuzi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmang.

O'qituvchi minbari

O'qituvchini rag'batlantirish mezoni tadbirbozlikka asoslanmasin!

Vazirlar Mahkamasining "Umumi o'rta ta'lif muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 823-sun qaroriga muvofiq o'qituvchilarining kasbiy mahorati, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy va sinfdan tashqari ishlariga qarab bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalarni belgilash mezonlari yuzasidan ayrim mulohazalarimni bildirmoqchiman.

Baholash mezoni 9 banddan (2- va 3-band mazmunan bir bo'lib, yuqori va boshlang'ich sinf uchun ajratilgan) iborat. Bandlarni mazmuniga ko'ra 4 qismga ajratish mumkin. Birinchisi, bevosita ta'lif mazmuniga tegishli, 1-, 4-bandga jami 25 ball ajratilgan. Ikkinchisi, ya'ni tadbirlarni tashkil qilishga tegishli 2-, 3-, 8-bandlarga jami 45 ball ajratilgan. Uchinchisi, ish staji, malaka oshirganligi va sinf rahbari faoliyatiga tegishli, 5-, 6-, 7-bandlarga jami 25 ball ajratilgan. To'rtinchisi, o'quchilar va Kuzatuv kengash a'zolari fikri bilan baholash mezonga tegishli, 9-bandga jami 10 ball ajratilgan.

O'qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati, uning faoliyatining sifat ko'rsatkichi 1-banddagi mezon o'qituvchi dars o'tayotgan sinflardagi o'quchilarning choraklik o'rtacha baholari o'zlashtirishning sifat ("4" va "5" baho) ko'rsatkichi asosida baholanadi. Bu mezon bo'yicha "Sifat ko'rsatkichi umumiy o'quchilar sonining 86 foizi va undan yuqori, shu jumladan, murakkab fanlar (ona tili, rus tili, chet tili, matemati-

ka, fizika, kimyo, biologiya) yo'nalishlarida 81 foizdan yuqorini tashkil etganda" 5 ball qo'yildi.

Endi e'tiboringizga tanlov va boshqa tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quchilarining ishtiroyidagi mezonni — "Boshlang'ich sinf o'quchilarining maktab miyosidagi tanlov va boshqa tadbirlardagi ishtiroyi natijalari asosida baholanadi" deyilgan 3-bandni kelitiramiz. Maktab miyosidagi tanlov va boshqa tadbirlarda qatnashgan o'quchilar uchun to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballning 55–70 foizgacha 10 ball, 71–85 foizgacha 20 ball, 86–100 ballgacha 30 ball qo'yilishi belgilangan.

O'qituvchining bir o'quv yilida 30–40 nafar o'quchisi bo'lgan sinfda o'rtacha sifat ko'rsatkichi 86 foizdan oshirishga erishsa 5 ball, tadbirda o'quchisi (qancha o'quchchi soni qatnashishi belgilanmagan) 86 foizdan yuqori ball to'plasa 30 ball beriladi.

O'qituvchilarini rag'batlantirishning bu mezonlari qanday oqibatlarga olib keladi? Birinchi navbatda maktablarda tadbirbozlik rivojlanishiha, ta'lif sifatining

yanada pasayib ketishiga olib keladi. O'qituvchi sinfida o'quchilar bilimi oshirishga, sifat ko'rsatkichini yaxshilashga harakat qilishdan ko'ra, o'quchilarini maktab miyosidagi tashkil etiladigan tadbirlarda ishtiroyi etishiga e'tibor berishni boshlaydi. Sinfda o'quchilarning o'rtacha sifat ko'rsatkichi pasaysa, ballni tadbirlar orqali to'ldirishga harakat qilinadi. Dars uchun vaqt ajratmasdan, tadbirlarga tayyorlaydigan mutaxassislarini qo'shimcha mablag' hisobiga (ota-onalar mablag'i hisobidan) o'quchilarini tayyorlashga jaib qilishga harakat boshlanadi. Uchinchchi Renessansga tadbirbozlik bilan erishib bo'lmaydi. Maktab boshqaruvidagi amaldagi tartiblar ham o'zgaradi. Yaxshi o'qituvchi bilimi, kasbiy mahorati bilan emas, tashkilotchilik qobiliyati bilan baholanishiga olib keladi. Xavotirlar hozircha shunday...

Umumta'lum muassasalaridagi o'qituvchilarining kasbiy mahorati, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy va sinfdan tashqari ishlariga qarab bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalarni belgilash mezonlari qat'iy qayta ko'rib chiqish lozim deb o'layman. Siz nima deysiz?

Oysara USANOVA,
Filologiya fanlariga ixtisoslashgan
davlat umumta'lum maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Imlo savodxonligi yuzasidan test

1. Imlo qoidasi asosida yozilgan so'zlarni belgilang.

- A) margumush
- B) tuturiq**
- C) taaluqli
- D) rejissyor

2. Bosh harflar imlosi buzilgan qatorni toping.

- A) Jahon tinchlik kengashi
- B) Tilshunoslik instituti
- C) Tosh DTU
- D) Yer Quyosh atrofida, Oy yer atrofida aylanadi

3. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A) qasddan
- B) xurillamoq**
- C) raxit
- D) narvon

4. Imloviy xato yozilgan so'zlarni toping.

- A) budjet, birpast
- B) huzur-halovat, xo'plamoq
- C) xusnbuzar, hovliqmoq
- D) hushyor, hoynahoy

5. Qaysi so'z imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan?

- A) hayhot **B) hatti-harakat**
- C) xushhol D) xohlovchi

6. Qaysi qatordag'i so'zlarining bo'sh o'rinnari h harfi bilan yozilishi kerak?

- A) i.los, mi., i.cham
- B) i.roj, i.tiyor
- C) de.qon, e...rom**
- D) i.tiro, i.tifol

7. Teatr, tank, soldat so'zlari imlo qoidalarining qaysi biriga asoslanib yozilgan?

- A) morfologik yozuv

B) fonetik va shakliy yozuv

C) fonetik yozuv

D) shakliy yozuv

8. Qaysi qatordag'i so'zlar (-) bilan yoziladi?

- A) bodom / qovoq, to'q/ qizil, kecha/ kunduz
- B) orom/ baxsh, qiyima/ taxta, ur/ to'qmoq

- C) uyma/uy, kiyim/ kechak, dam/ badam

- D) gul/ chechak, bordi/ keldi, och/ sarqiq

9. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlang.

- A) axmoq B) barxam C) harfma harf D) olibsorta

10. Imlo qoidasi asosida to'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.

A) drammaturgiya

B) suvratxona

C) senariy

D) jonzod

11. Bosh harflar imlosi asosida yozilgan so'zlarni belgilang

- A. Markaziy Osiyo, Yetim masjid
- B. Davlat Test markazi, Mudofaa vazirligi

C. O'zbekiston Respublikasi, Yevropa ittifoqi kengashi

D. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, Yetimmasjid

12. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini ko'tsating.

- 1) uchuriq, gurulla 2) shovulla, parvosi 3) obro'yi, mavzusi

- A) 1,2,3 B) 2,3 C) 1,2 **D) 1,3**

13. Qaysi so'z to'g'ri yozilgan.

- A) barkka B) kesdir



C) ko'nikgach

D) og'gan

14. Imloviy jihatda to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini ko'rsating.

A) aftobus, tafsif

B) jaxon, tatqiqot

C) avtomat, iztirob

D) aftomobil, kareys

15. Qaysi qatordag'i barcha so'zlarda nuqtalar o'rnida f harfi qo'yiladi?

A) a...tol, a...gor, ta...silot

B) a...zal, a...g'on, ta...fiq

C) a...sun, sa...sata, ta...tish

D) a...soma, sha...qat, ta...siflamoq

16. Quyida berilganlardan imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan yasama otlar ajaratib ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) shavqatsizlik; 2) sermulohaza; 3)

muvaffaqiyatsizlik;

4) xushmuomala; 5) mutaxassislik;

6) mukafot.

- A) 3,5 B) 1,2,6

- C) 1,3,5 D) 4,6

17. Quyidagi so'zlardan qaysilari imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan? 1) jaholat; 2) hokisor; 3) mutaxasis; 4) hoxish; 5) zahmat; 6) bayalmilat; 7) taxsimot; 8) asil; 9) bepayon.

- A) 1, 2, 3, 8

- B) 1, 5, 6, 8**

- C) 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9 D) 1, 5, 8

18. To'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) tumortaqlid

B) tumortaxlit

C) tumor taqlid

D) tumor taxlid

19. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini ko'rsating.

- A) dahl B) dasxat

- C) tuturiq D) defektalog**

Rahima QIYOMOVA,
Zarafshan shahridagi
2-maktab o'qituvchisi

Shuni ham o'rgating, muallim... yoxud o'qituvchi haqida o'qiganlarimiz

Muallim, ma'rifat, ma'niviyat, mutolaa... Bu so'zlar mudom uyg'unlikda jaranglaydi. Quyida o'qituvchilarga ehtiromning badliyatdagi talqini xususida ozroq so'z yurishiga jazm etdik.



Qalblarga solingan ko'priklar

Turkiy xalqlar adabiyotida mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning nomi alohida o'ringa ega. Sevimli adibimizning asarlari orasida "Birinchi muallim" qissasi aymiqsa, mashhur. Asardagi o'qituvchi Duyshen obrazzi pokiza qalb egasi, metin irodali, mardonavor kurashchi, qalbini bolalarga baxshida etgan inson sifatida tasvirlangan. Mana bu satrlarga bir e'tibor bering: "Ko'priklar solishga yog'och topish uchun Duyshen har qancha harakat qilsa ham bo'imadi. Bir kuni maktabdan qaytayotganimizda, bolalarni ariqdan o'tkazib qo'yidka, Duyshen ikkalamiz ariq bo'yida qoldik. Suv kechishdan qutulish uchun tosh va chimdan hatlamchi yasamoqchi bo'ldi. Rostini aytganda, ovulqilarning o'zlarini insof qilishsa, shu yerga ikki-uchta taxta olib kelib tashlashsa, ko'priklar ham bitardi-qo'yardi, lekin u zamonda o'qishning ma'nosiga aqli yetmagan xaloyiq. Duyshenni anchayin bekorchi afandi deb bilishardi. Chidasang o'qit, bizni tinch qo'y, deganday ot kechgan yerga ko'priklar solib o'rganmagan odamlar, bizning mushkulimizni oson qilish yetti uxlاب tushlariga ham kelmafdu-y! Lekin ular tanalariga bir o'ylab ko'rishsa bo'lardi: nima uchun boshqalardan ortiq bo'lsa borki, lekin kam yeri bo'lmagan, aqli-hushi joyida bu navqiron yigitning shuncha azob-uqubat, xo'rliklariga qaramay, tirishib-tirmashib ularning bolalarini o'qitib, qo'lidan kelganicha ularga ilm berayotganining vajni nima edi? Biz o'sha kuni ariqqa hatlamchi solayotganimizda birinchi qor tushgan edi. Suyak-suyaklardan o'tib oyoq-qo'lni qaqqatgan muzdekkuvda Duyshening oyogyalang bo'lib olib, katta-katta xarsang toshlarini ko'tarib yurganiga hali-hali aqlini yetmaydi...". Duyshen yax kechib solgan ko'priklasida ariqqa emas, bolalarning qalbiga tomon solingan edi. Adib bu obraz orqali oddiy xalq ziyolisi – o'qituvchining betakror ichki dunyosini mahorat bilan ochib bergen.

Qashqirlarni qo'rqtigan daftarlari

Korazmda Matnazar Abdulhakim degan shoir yashab o'tdi. Uning "Javzo tashrifi" nomli she'rlari to'plamini ijodkor do'stim rahmatli Abdumurod Qodirovdan olib o'qigandim. Kitobda "Darsdan so'ng"

degan go'zal she'r bor. Ma'nosasi shunday: chekka ovuldagda maktabda muallimalik qilayotgan ayol har kuni qir osha maktabga qatnaydi. Kunlarning birida muallima uy vazifasini topshirmagan yetti o'quvchini qattiq koyidi. So'ngra bir quchoq daftarni olib, uyiga qaytmoqchi bo'ldi. Hamkasblaridan biri qoling deb qistasa ham, uyiga alag'da bo'lib yo'iga otlandi va yarim yo'lda qashqir ta'qib qilayotganini payqadi. Muallima jondorning olovdan qo'rqishini bilardi, bitta-bitta daftarlarni yoqib, yo'lida davom etaverdi. Ovulga yetishiga ozgina qolganda qo'litiqda daftarni qashqirda sabrugadi... Balki yana olti-etdi daftarni bo'lganmu muallim

ma uyiga eson-omon yetib olarmi? Ammo mudhish voqeasi sodir bo'ldi. Muallimaning azasida huv o'sha daftarni topshirmagan yetti o'quvchi hammadan yomon yig'ladi. Biroq she'r bu bilan tugaydi.

No'noq nazmimi uchun afv et, xalqim,
Na olim, na fozil, na so'z piriman.
O'z vaqtida daftarni topshira olmay
Qolgan bolalarning biriman.
Men masqh bajaraman, yozaman har kun
Daraklar, so'roqlar, xitoblarimni.
...Sen yo'li bo'yli yoqib, tashlab ketaver
Qashqirlar qo'rquvchi kitoblarimni.

Yana bir gap. Shoiring she'ri sabab Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani Bo'ston shaharchasida "Ustozga ehtirom" monumenti bunyod etilgan...

"Nega mening bolamga muallim bo'lasan, dedingiz?"

Adib Luqmon Bo'rixonni nasr ixlosmandlari yaxshi tanishadi. Uning qalamiga mansub "Sirli muallim" qissasidagi voqealar ovloq qo'rg'onda qurilgan maktabda bo'lib o'tadi. Maktab direktori Qalqonov o'zining tushuntirish xatida shunday yozadi:

"Shu voqeadan so'ng biror hafta o'tar-o'tmas Zokirning onasi Mohigul, huv, Safarmurod chavandozning qizi maktabga bostirib keldi:

"O'y, o'troq Qalqonip, nega mening bolamga muallim bo'lasan, dedingiz? O'g'lim bechora necha kundan beri qaqshab yig'lab yuribdi".

Men hangu mang qotib qolgan edim. Tilim arang kalimaga aylandi.

"Nega yig'laydi?! Nima, yomon tilak bildiribmanmi?"

"Jo'ralari ustidan kulib yurishibdi ekan. Nega unday dedingiz? Bolam kimdan kam, nega u muallim bo'lar ekan?!"

"Men jo'yali bir javob topgunimcha Mohigul qarg'ana-qarg'ana xonamdan chiqib ketdi".

Keyin esa maktabga baland bo'yli, kelishgan, yap-yangi, qimmatbaho kostyum-shim, oppoq ko'ylik kiygan, yuz-ko'zlaridan allanechuk nur yog'ilgan yigit "Neksiya"da keladi. Bu yigit fidoyi muallim Najot G'aybulla edi... Voqealar rivoji sizni ham qiziqitrsa, alabatta, shu kitobni topib o'qing. Afsus qilmaysiz...

Qishloqdagi eng zo'r odam

Endi muallimning martabasi raisdan ham zo'r bo'lgan davrlardan ham bir gurung aytay...

Husan muallimning nafaqa to'vida mahalla oqsoqoli Do'styor rais shunday deb qoldi:

– Bolaligimda ota-onamning arzandas, erkatoy edim. Rostini aytasam, o'qishga ham unchalik hushim yo'q, darsga ham xohlasmash borar, xohlamasam bormasdim. Kunlarning birida uyimizga Husan muallim kelib, otamga dabdurustdan do'q urdi:

– Ertadan boshlab o'g'lingiz maktabga bormasdan, dars qoldiradigan bo'lsa, sizni ishshan haydataman, – dedi-da, ortiga qaytib ketdi.

Nazarimda qishloqdagi eng zo'r odam deb yuranim otam, mulzam bo'lgancha muallimni kuzatib qo'ygach:

– Endi nima qilamiz, Do'styorboy? – deb menga savol berdi.

Men enamga ittiljoli qaradim.

Enam esa bamaylixotir dedi:

– Husan muallim aytganini qiladigan odam, hatto kolxozi raisi ham u kishidan hayiqadi.

Otam indamay bosh irg'adi.

O'sha kundan boshlab menin bolalik kunlarimda keskin burilish bo'ldi. Azonda turib yuz-qo'limni yurdim, choy ichdim va sumkamni olib maktabga jo'ndam. Kunlar o'tishi bilan o'qishimda ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi, yil oxiriga borib ilg'or o'quvchilar qatoriga o'tdim.

Mening nazarimda qishloqdagi eng zo'r odam Husan muallim bo'lib qolaverdi. Agar Husan muallim bo'lmaganida sizning qarshingizda turgan kamina, olyi ma'lumotli agronom, xo'jalik raisi, mahalla oqsoqoli ham bo'lmasdi!

Biz ko'nikkan javoblar va...

Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan, ustozlar, Yursam deyman bu tabarruk izingizdan, ustozlar...

Ha, xonanda Sanobar Rahmonova ijrosidagi shoir Po'lat Mo'min qalamiga mansub "Ustozlar" degan ashulanling shinavandalar tiliga tushganha ham ancha yillar bo'ldi. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning muallimlarga atalgan, "Muallim haqida so'zim ushbusdir: muallim kamolot ichra ko'zgudir" degan betakror bitiklari esa bayramlari tadbirdarda bot-bot yangrashini aytmaysizmi?!

Bugun muallimning martabasi yana yuksalmoqda. Yurtimizda pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida ulug'vor ishlar amalga oshirilmoga. Tez orada bolalarimiz "Kim bo'imoqchisan?" degan savolga biz ko'nikkan "Prokuror", "Moliachi", "Bankir", "Harbiy"... degan javoblardan ham ko'proq "Muallim!" deya javob beradilar, albatta. Va bu javob o'zgacha g'urur va iftixor bilan jaranglaydi.

...Endi navbat o'zimizga keldi chog'i. Kamina ham qatoridan qolmay muallimlarga deb bir nimalar qoraqagandir:

...Uchrashib qolgudek bo'lsak mabodo

So'roqqa tutasiz:

"Xo'sh, ishlar qalay?"

Goh "yaxshi" deymiz-u goh shu asnoda,

Dovdirab qolamiz, misli bolakay.

"Hayot - toshqin daryo, suzmoq bo'lsang gar, Izlammoq kerak", deb bergansiz ta'llim.

Ilk bor imlo yozib, o'rgatgan misol, Shuni ham o'rgating, aziz muallim!

O'rolboy QOBIL

Qamashi

Sinab ko'ring

Muammoli ta'lism —

ijodiy salohiyat tarbiyachisi

yoxud "T-T-T-T-T texnologiyasi"

Iste'dod tabiatning in'omi. Ammo tabiatdan in'om kutib turmay, mehnat va izlanishlar natijasida yutuqlarga erishadigan ijodkorlar ham talaygina.

O'qituvchi ta'lism jarayonini shunday tashkil etishi lozimki, sinfdagi har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etaolsin. Men har bit darsimga shu talabni qo'yaman va unga erishishiga harakat qilaman. Ma'lumki, ona tili va adabiyot darslaridan maqsad o'quvchini amaliyotdan nazariya keltirib chiqaradigan va uni boyitgan holda yana amaliyotda qo'llay oladigan darajaga yetkazishdir.

Bunda TTTTT (topshiriq(muammo), tadqiqot, taqdimot, to'xtam, tatbiq) metodidan foydalishni afzal ko'raman.

Bu usul 5 bosqichda amalga oshiriladi.

T- T -T-T-T- topshiriq, tadqiqot, taqdimot, to'xtam, tatbiq

1-bosqich: muammo tarzida **topshiriq** beriladi;

2-bosqich: shu topshiriq ustida o'quvchilar **tadqiqot** olib boradilar;

3-bosqich: tadqiqot ishlari **taqdimot** uchun saralanadi;

4-bosqich: tahlil natijasi o'laroq muayyan **to'xtamga kelinadi**, manbalar solishtiriladi;

5-bosqich: o'quv materiallariga **tatbiq** etiladi.

2020-yili nashr etilgan S.Ahmedov rahbarligidagi guruh tomonidan tuzilgan 5-sinf "Adabiyot" darslidagi "Botir tikuvchi" ertagi asosida tushuntirishga harakat qilaman. Darvoqe, darslarimda muammoli ta'lism namunasini bo'lmish bu usulni har safar har xil nomlayman.

1-bosqich. Topshiriq: "Nima yaxshi-yu nima yomon?"

"Botir tikuvchi" ertagida qaysi qahramonlar xatoga yo'l qo'ydarlar?" tarzida muammo qo'yiladi.

2-bosqich. Tadqiqot: O'qituvchilarga yo'naliш berish uchun tushunchalar tahlili jadvalini taqdim etamiz:

Asar qahramonlari	Xato va kamchiligi	Natija	xulosa
Pashshalar			
Ulkan odam			
Qirol va xizmatkorlar			
Qaroqchilar			

3-bosqich. Tanlov: o'quvchilar fikri umumlashtiriladi, ya'ni eng yaxshi fikrlar tanlab olinadi.

Asar qahramonlari	Xato va kamchiligi	Natija	Xulosa
Pashshalar	Tekinxo'rlik, o'zgalar nasibasiga sherik bo'lganligi	O'lim	
Ulkan odam	Maqtanchoqligi va badgumonligi	Baxtsizlik. Chunki vatan-sizlik — baxtsizlik	Terakdek bo'y berguncha tugmadek aql bersin
Qirol va xizmatkorlar	Badgumonligi va birovga yomonlikni ravo ko'r-ganligi	Baxtsizlik. Chunki vatan-sizlik — baxtsizlik	Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan
Qaroqchilar	Do'stik sharti bo'lmish ishonchga xiyonat qilganligi va ogoh bo'Imaganliklari	O'lim	Birlashgan o'zar, birlash-magan to'zar

4-bosqich. To'xtam:

Asar qahramonlari	Xato va kamchiligi	Natija	Xulosa
Pashshalar	Tekinxo'rlik, o'zgalar nasibasiga sherik bo'lganligi	O'lim	Birovning moliga ko'z olaytirma
Ulkan odam	Maqtanchoqligi va badgumonligi	Baxtsizlik. Chunki vatan-sizlik — baxtsizlik	Terakdek bo'y berguncha tugmadek aql bersin
Qirol va xizmatkorlar	Badgumonligi va birovga yomonlikni ravo ko'r-ganligi	Baxtsizlik. Chunki vatan-sizlik — baxtsizlik	Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan
Qaroqchilar	Do'stik sharti bo'lmish ishonchga xiyonat qilganligi va ogoh bo'Imaganliklari	O'lim	Birlashgan o'zar, birlash-magan to'zar

5-bosqich. Tatbiq: shu bosqichda qisqacha takrorlash o'tkazishga imkon tug'iladi. O'quvchilar dan oldindi darslarda qahramonlar xatosidan nima o'rganganligi so'raladi.

Bu usuldan ona tili darslarida ham foydalish mumkin. Bilamizki, ona tilining sintaksis bo'limida o'quvchilar uchun bir-biridan ajratishi qiyin bo'lgan bo'laklar bor. Hol va sifatlovchi aniqlovchi, hol va to'ldiruvchi, ega va belgisiz kelishik kabilar ta'limgoluvchi uchun ancha ikkilanishlarni keltirib chiqaradi. Agar o'qituvchi beradigan **topshiriq** to'g'ri tanlansa, o'quvchi ijobji natijalarga erishishi mumkin.

Amaldagi dasturda ham, ayni kunlarda loyihasi muhokama qilinayotgan milliy dasturda ham hol va aniqlovchi mavzulari kiritilgan bo'lib, bu bo'laklarni bir-biridan ajratish uchun quyidagi topshiriqlarni havola etamiz.

1-bosqich: Topshiriq.

Qiyoslang:

- | | |
|---|--------------------------------------|
| 1. Ariqdag'i suv o'ynoqlab oqmoqda. | 1. Ariqda suv o'ynoqlab oqmoqda. |
| 2. Ko'p bilim — hayot yo'ling chiroq'i. | 2. Ko'p o'yla, oz so'yla. |
| 3. Yomon yo'ldosh yov bo'lur. | 3. Do'sting haqida yomon o'ylama. |
| 4. Men sakkizinch sinfa o'qiyan. | 4. Bu gapni sakkizinch marta aytdim. |

2-bosqich: Tadqiqot.

Yo'naltiruvchi savollar:



- Yuqoridagi gap julfiliklaridagi ostiga chizilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida yozing.
- Hokim so'z ifodalanimiga qarab tasniflang.
- Tobe so'zlar hokim so'zning qaysi jihatini izohlayotganini aniqlab, guruhlang.

3-bosqich. Tanlov: O'quvchi ish daftarida chiroli jadval paydo bo'ladi:

Izohlangan belgi	Oqli birikma	Fe'lli birikma
O'rinn	Ariqdag'i suv	Ariqda oqmoq
Xususiyat	Yomon do'st	Yomon o'yhamoq
Miqdor	Oz gap	Oz yemoq
Tartib	Sakkizinch marta aytdim	Sakkizinch qator
Shakl, ko'lam	Katta uy	Katta gapirmoq

4-bosqich: To'xtam. Endigi muammo ayni bir so'zning nega ikki guruha ajralGANI sababi aniqlanib aniq to'xtamga kelinadi. "Hol" mavzusi oldin o'tilganligi uchun o'quvchi fe'lli birikma qatori nomini "holli birikma" deb darrov o'zgartiradi. "Otli birikmalar" qatorini nomlash uchun, avvalo, sifatlovchi aniqlovchining ta'rifni keltirib chiqarilishi kerak. Bu esa endi o'quvchi uchun hech gap emas. Chunki oldindi darsda aniqlovchi haqida umumiyl ma'lumotga ega bo'lgan. Xullas, muammo hal, yakuniy xulosalar tayyor, endi siz emas, o'quvchining o'zi hol va sifatlovchi aniqlovchining farqli va o'xshash tomonlarini tushuntirib beradi.

5-bosqich: Tatbiq. Xulosalar asosida ilmiy matn tuzdirilsa, maqsadga muvoqif bo'ladi. Men bu bosqichda o'quvchilarga quyidagi rasmiy taqdim etdim va sinf o'quvchilariga ictiyoriy ravishda ilmiy yoki badiiy matn tuzishni taklif qildim. Bu ishning "tatbiq" bosqichini tashkil etdi.



Animatsiyali ta'limi o'yinlar bilimlarni mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta'lím tashkilotida

Yangi bog'cha - yangi imkoniyat

Dunyoning bor quvonchi va shodliklari bo'lgan bolajonlarimizga yaxshi ta'lím-tarbiya berish, ularning dunyoqarashini kengaytirish ota-onalar bilan birga, davlatning ham ustuvor vazifalariga kiradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lím tashkilotlarini ko'paytirish, mavjudlarini zamonaviy ta'mirlash, davlat xususiy sherkchiligi asosida yangi bog'chalar qurish, bola qamrovini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uchko'priklar tumanidagi 19-MTTDa 120 o'rinni modulli bog'cha foydalanishga topshirildi. Tumanning Toshkentliguzar qishlog'i eng aholisi ko'p qishloqlardan biri hisoblanadi. Bu yerda bog'chaga navbat kelishini kuta-

yotgan 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar 300 nafardan ziyodni tashkil etadi.

Ota-onalarning talab va istaklarini inobatga olgan holda bu maskanda konteynerdan modulli bog'cha qurilib, foydalanishga topshirildi.

G'ayratjon Abdullayev rahbarlik qilayotgan "Qurilish ta'mir" MChJ tomonidan 120 o'rinni modulli bog'cha qurilib, foydalanishga topshiri-

rildi, — deydi tashkilot rahbari Dilnoza Mahmudova. — Bu ishlar uchun 480 million so'm sarflandi. Barcha quylayliklarga ega bo'lgan, eng so'nggi jihozlar bilan jihozlangan, zamonaviy qiyofadagi bu maskanda bolajonlar "Ilk qadam" dasturi asosida maktabgacha ta'límni oladilar. Ko'p yillik tajribaga ega tarbiyachilarimiz Ziroatxon Tohirrova, Marhaboxon Haydarova, Feruza Mahmudovalar qatoriga yana yosh pedagoglar ham qo'shiladi.

Endi bu maskanda 370 nafar bolajonning kuni quvnoq va mazmuni o'tadi.

Sharifa MADRAHIMOVA,
jurnalist

Tajriba

Ishonch va e'tibor o'qituvchiga kuch berdi

25 yildan buyon Yakkasaroy tumanidagi 144-umumiyl o'rta ta'lím maktabida ishlayman. Dars sifatini oshirish, ish-tajribalarini ommalashtirish, o'quvchilarini fanlarga qiziqirish, shuningdek iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish borasida muntazam ish olib borsamda, ayni paytda yanada ko'proq izlanishdamen. Sababi bugun ota-ona o'qituvchini tanlash, farzandini yaxshi ustoz qo'liga topshirish masalasiiga befarq emas. O'qituvchi ham har kuni, hattoki har darsiga yangilik olib kirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli men ham har kunimga yangi metodikani olib kirishni shior qilib olganman.

2010-yilda "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida sovrinli 1-o'rinni egallab, "Xalq ta'lumi a'lochisi" nishoni bilan, 2011-yilda "Shuhurat" medali, 2020-yilda esa "Xalq ta'lumi fidoyisi" nishoni bilan mukofotlandim. London shahrida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-ahamiy konferensiya "Boshlang'ich ta'limd o'qitishning samarali shakl va metodlari" mavzusidagi ilmiy maqolam bilan ishtiroy etib, diplom bilan taqdirlandim. 2019-yil yanvar oyida "Kasbiy fanlar metodikasi" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik jurnalida "Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy maqolam ham chop etildi.

"Sog'lom bola yili" davlat dasturining 17-bandji ijrosini ta'minlash maqsadida faoliyat ko'sratayotgan mualliflar guruhida 1-4-sinf "Ona tili" darslari da boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha 4 ta metodik qo'llanma va multimedia ilovalar mualliflaridan biriman. Boshlang'ich ta'limd o'qitiladigan fanlarning davlat talablarini va o'quv dasturlarini optimal lashtirish, yangi avlod darsliklarini yaratish va tajribadan o'tkazish bo'yicha doimiy taklif va g'oyalar bilan Respublika ta'lím markazi qoshidagi Ilmiy



metodik kengashi a'zosi sifatida faol ishtiroy etaman.

Pandemiya tufayli 2020-yilning 17-martidan o'quvchilarining ta'limda tanaffus qilmasliklari uchun onlaysiz maktab loyihasi yaratildi. Men ham shu loyiha ishiga jalb qilindim va 250 ga yaqin onlaysiz darslarni o'tib, respublikamizdagi boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan virtual muloqotga kirishganidan mammunman. Ushbu jarayon o'quvchi va ota-onalarga quylayliklar yaratishi bilan qator kamchiliklarni ham yuzaga keltirdi. Xususan, ota-onalar onlaysiz ta'limga tayyor emas. Buning sababi o'zbek tilidagi multimediali ta'lím resursining kamligi va hatto ayrim joylarda mayjud emasligidir. Shu sababli "Mashrabxon.uz" ta'limi platformasini yaratishni maqsad

qildim. Ushbu platforma orqali o'quvchilar onlaysiz ta'lím resurslaridan mustaqil foydalana oladi. Qo'shimcha elektron ma'lumotlar bilan tanishadi. Animatsiyali ta'limi o'yinlar vositasida bilimlarni mustahkamlaydi.

Ota-onalar farzandlari bilan mustaqil shug'ullana oladi. Maktab bilan hamkorlik kuchayadi. O'qituvchi mehnati qadrlanadi. Pedagog xo'dimlar esa o'zaro tajriba almashadi, darslarida zamonaviy resurslardan foydalanan. Mustaqil ta'lím olish malakasi oshadi. Mana shu platforma orqali ta'lím sifatining yanada oshigiga umid qilamiz.

Mashrabxon UMAROVA,
Yakkasaroy tumanidagi
144-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Geymifikatsiya bu fanlarni o'yin orqali o'rganishdir. Bunday metodlarni har bir fonda qo'llash mumkin. Jumladan, boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida sinfdan tashqari o'qish, ertak va hikoya mavzularida o'g'irchoq teatridan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Zero zamonaviy bolalarni kitobga qaytarish, badiiy adabiyotga yo'naltirish, telefon va internetdan chalg'itib o'qishga qaytarish butun dunyoda dolzorb muammolardan biridir.

Aktyorlikdan so'ng kitobxonlik boshlanadi

O'qish darslarida o'quvchilarining o'qish tezligi, tinish belgilarga rioya qilib ifodalivi va ravon o'qishlari biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng olyi maqsadimizdir. Ammo, hamma o'quvchi ham xuddi biz kutgandek o'qiy olmaydi. Yoki o'qishni xohlalamaydi. Bunday o'quvchilarida geymifikatsiya metodlari yordamida ifodalib o'qishga o'rgatish mumkin.

Ma'lumki, 1-sinfdan 4-sinf-gacha "O'qish" darsliklarida o'zbek va qardosh xalq, chet el ertaklari, o'zbek va chet el yozuvchilarining asarlaridan parchalar, hikoyalari va sinfdan tashqari o'qish darslari berilgan. Yuqorida sanalangan barcha mavzular yuzasidan kichik-kichik qo'g'irchoq spektakllari sahna lashtirish mumkin. Bunda kerakli qahramonlar obrazini yaratib berish uchun o'quvchilarga roller bo'lib beriladi. Bu qahramonlarni gavdalantirish uchun detallarni o'quvchilar o'zlarini yasab olishlari mumkin. Bunga katta harajat ham kerak bo'lmaydi. Faqat mehnat qilish kifoya. O'quvchilarga "Mavzuni o'qib kelging!" degan topshiridagi ko'ra "Shu qahramon sizniki, bu rolni qoyilmaq qilib o'ynash uchun qaysi obrazlardan keyin va qayerlarda gapirishingizni o'rganib kel, bu qahramonning tabiatini qanday, o'zini qanday tutishi kerak? Shularga ham e'tibor bering" deyish kifoya. Bunday

ishonchga ega bo'lgan o'quvchi vazifani qiziqib, sidqidildan bajaradi. Buni o'zimming ish tajribamda sinaganman. Natija esa ko'nglidagidek bo'lgan deb ishonch bilan aytga olaman.

Ushbu jarayonda o'quvchilarining faolligi oshishi bilan bir qatorda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarining yashirin iqtidori, nutqida nuqsoni bor o'quvchilarining rolni o'ynash asosida hech qanday nuqsonlari bo'lgan hollarda: she'r avtish, mutolaa qilish, biron tadbirda rol o'ynash jarayonlarida duduqlanmaydilar), sinfdan tashqari o'qish darslarida esa o'quvchilarining badiiy kitobni o'zi izlab, ishtiyoq bilan o'qishiga undaydi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida har bir guruhga turlicha mavzu berish kerak. Shunda sinf o'quvchilarini bir emas balki, bir nechta mavzu haqidada ma'lumotga ega bo'ladilar. O'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish uchun shu tayyorlangan spektakllarni shanba kunlari maktab zallarida boshqa o'quvchilar oldida qo'yib berish orqali esa o'quvchilarining o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yanada ortadi.

Zebo YUSUPBAYEVA,
Ellikqal'a tumanidagi
12-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Dolzorb mavzu

Toshkent va Samarqand o'rtaida, Sangzor daryosi vodiysida, Zomin va Nurota tog'larining orasida Jizzax viloyati joylashgan. Bir vaqtlar Ipk yo'l o'tgan vohada tog'lar, dasht va cho'l landshaftlari noyob tarzda birlashtirilgan bu mintaqaga bugungi kunda jadal rivojlanmoqda. Ayni kezda u yerda ko'p asrlik an'analar zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq taraqqiyot bo'y ko'satmoqda. Rivojlanayotgan bu hudud ilm-fanni o'zida jamlagan, salohiyatlari kadrlarga ehtiyoj yanada ortadi, degani.

Yuksalish yillari va yo'llari

Agar baxtni oldindan sezish tuyg'usi sizni aldagani bo'lsa ham, unda shunchalar ko'p kuch borki, u kuch keyinchalik yashashingizga yordam bergan bo'lib chiqadi".

"Inson kayfiyatining samarali biroq ochilmagan qirralarini izlash va topish yozuvchilarining ishi", deb o'yaldi Muravyov. Bu ham ijodning bir sohasi".

Mehnat! Butun tevarak-atrof u bilan to'lib toshgan, minglab tonnalli yuk poyezdlari sharaqlab o'tyapti. Bu mehnat. Samolyot qorli tekisliklar ustidan guvvillab uchmoqda. Bu ham mehnat. Elektr uzatgichlar ulkan quvvatga ega tok kuchini qorong'ilik o'ynidan olib o'tmoqda va bu ham mehnat.

"Qor bilan qoplangan ko'p millionli mamlakat nima uchun mehnat qilyapti?" — o'yaldi Muravyov. Va niyoyat, men o'zim nima boisdan mehnat qilyapman? Yashash uchunmi? Yuksak ma'naviy boyliklarni? Insomning go'zal, oddiy va oqil bo'lishi uchunmi? Va niyoyat muhabbat hayotimizni sof nafasi bilan to'ldirishi uchunmi? Ha, shuning uchun! Pushkin o'ynoq she'rida so'raganiday:

Kim o'stirdi bu qorda dilbar atir-gullarni,

Ayt, kim temir davridan oltin davrini topdi?

— Albatta, biz, — o'zi o'ziga javob berdi Muravyov. Qor vagonga yopirilib, yuziga qo'nib erib ketardi. — Biz bo'limasak, boshqa kim?"

Muravyov Moskvada nashr etiladigan jurnallardan biriga mehnat mavzusida hikoya yozish topshirig'ini oлган edi. U bu hikoya ustida ko'p ishladi, biroq hech bir natija chiqarolmadi. Chunki mehnatni batafsil tasvirlash insonni chekkaga surib qo'yadi-da. Inson bo'lmaganidan keyin hikoya an-chayin zerikarli bo'lib qoladi. Muravyova hikoyaning qovushmayotganiga sabab Moskvadagi g'ala-g'ovur muhit — telefon qo'ng'iroqlari, turli tashvishlar, mehmendorchilik va majlislar bo'lib tuyuldi.

Xullasi kalom, Muravyovning jahli chiqdi va shahardan jo'nab ketdi. Moskva yaqinidagi posyolkalardan birida do'stining o'z dalahovlisi bor edi. Muravyov dalahovliga ko'chib borib hikoyani tugatmaguncha u yerda qolishga qaror qildi. Dalahovlida do'stining uzoq qarindoshlari turishar, lekin Muravyov ularni hech qachon ko'rmagan edi.

Shimoliy vokzalda, Muravyov shahar tashqarisiga jo'natdigan poyezdga chiqish uchun perron bo'ylab ketayotganida yuragi haphirib ketdi va u endi omadim choppadi, deb o'yaldi. Bu omad qanday kelishimi tasavvur ham qildi. U buni butun vujudidagi tetiklik, ichki haya-jonni jilovlash, atrofdigilarni eslab qolishdagi ziyraklik, bu notanish dalahovliga tezroq yetib olish istagi kabi aniq alomatlar tufayli bilardi. U tezroq osoyishta ishga kirishib, oppoq qog'ozni qo'lga olishini bilar, mudom xayolida sevimli she'riy satrлar charx urib aylanardi.

"Hayajondan yurak iymanar, Duk-duk urib sado beradi. Quroq tushday chopar, izlanar Va ozodlik gulim teradi". Muravyov shunday hayajon bilan

K.Paustovskiy (1898-1968)

qarag'ayzor o'rmonning dalahovililar ga tutash uzun temiro'i stansiyasida poyezddan tushdi. Stansiyada hech kim ko'rinmasdi. Faqatgina sovuqdan yunglari hurpaygan bir to'da chumchuq yog'och panjaralar ustiga qo'nib olib, poyezdga norozi qiyofada qarab turishardi. Muravyov ularning yonidan o'tayotganida cho'chimadilar ham, hatto yengi bilan turtib yuborishiga sal qoldi. Faqat bir chumchuq Muravyovning tepasida turib nimadandir norozi chiyilladi. "Beadab, meni so'kyapti shekilli, o'yaldi Muravyov va burilish chumchuqa dedi:

— O'zingni kim deb o'ylaysapsa?" Chumchuq bit ko'zlarini qadab, uning ortidan norozi qarab qoldi.

Dalahovli stansiyadan uch kilometrcha olisda edi. Muravyov ovloq yo'ldan ketib borardi. Onda-sonda siyrik daraxtlar orasida sayhonliklar ko'zga tashlanar, ularning tepasidagi osmon qizarib turardi. — Nahotki kun botgan bo'lsa? — baland ovozda gapirdi Muravyov va bu joyda, shahar tashqarisida o'zi bilan o'zi gaplashayotganini payqab qoldi. Kun tez o'tib borar, yorug'lik shu'lesi deyarli ko'rinmasdi. G'ira-shirada birorta ham quyosh nuri qirov bosgan daraxt shoxlariga tushmas, ularni oppoq nurlari bilan erkalamas, qorga xira soyalar tashlamasdi.

Yo'ljarlik ustidagi yog'och ko'priktarafga endi. Uning tagidan jilg'aning shildirashi eshitilardi.

— Aha! — o'zida yo'q suyundi Muravyov va to'xtadi.

Muz ostidagi suv o'yib ketgan chuquurchada chopqilayotgan loyqa suv, uning tagida toshchalar ko'rinib turardi.

Qishda buncha sunvi qayerdan olasan, oshna? — so'radi Muravyov.

Jilg'a javob bermadi, albatta. U ovozini goh pasaytirib, goh ja-ranglatib oqishda davom etardi. Suv yaltiroq muz parchalarini bo'lakchalarga bo'lar, bir-biriga to'qnashirardi.

Muravyov pastga tushib, tayoqcha bilan muz parchalarini sindira boshladi. Jilg'a muz bo'laklarini dumalatganda ko'pik hosil bo'lardi. "Bahorga ozgina yordam ham berish kerak-ku", — o'yaldi Muravyov va tirjayib atrofaga alanglatdi. Ustiga ko'k chang'ichilar kostyumini kiyan bir qiz chang'i tayog'ini qorga qadab, ko'priktaridunga diqqat bilan qarab turardi.

Muravyov uyalib ketdi. Bu qiz uni kim deb o'ylayotgan bo'lsa? "Qari tallak qiligidiga o'laymi?" U bundan boshqa narsani o'ylamaydi ham, albatta. Biroq qiz egildi, shoshilinch chang'isini yechdi va Muravyovga qarab qichqirdi.

— Shoshmang! Yaxshisi muzni chang'i tayoqchasi bilan bo'laklagan ma'qul. Temir uchlari bor. U pastga

chopib tushib, Muravyovga tayoqchasini uzatdi.

Ma'lum bo'lishicha, bu tayoqcha bilan muzni sindirish ancha oson ko'charkan. Ular ikkalasi jim va diqqatni jamlab muzni sindira boshlashdi. Muravyov isib ketib, qo'lqopini yechdi. Qizning to'qima paypog'i ostidan kokillari ko'rinib qoldi. So'ngra qayerdandir qulochchinlari dikkayib turgan bola paydo bo'lidi. U burnini tortib, turtinib-surtinib oyoq ostiga o'ralashayotganida Muravyov uni sezib qoldi.

— Endi yetar! — dedi niyat Muravyov va qaddini ko'tardi. Qurong'ilik quyuqlashdi. "Vaqting tez o'tishini qarang" — o'yaldi Muravyov va qizga qarab kulib yubordi. Qizcha qo'lqopidagi qorni qoqayotgan edi. Bunga javoban qiz boshini ko'tarmasdan jilmaydi.

Jarlikdan o'rmon yo'liga chiqishgach, Muravyov qiz bilan gaplashib ketdi. Sal orqada bolakay o'ralashar, pishillab burnini tortardi.

Ma'lum bo'lishicha, bu qiz Muravyov borayotgan dalahovlida otasi bilan turarkan.

— Demak, siz ekansizda do'stining uzoq qarindoshi, — xursand bo'lib ketdi Muravyov va o'zini tanishitirdi. Qiz kulrang qo'lqopini yechib, Muravyovga qo'lini uzatdi.

— Mening ismim Jenya, — dedi u oddiyigina qilib. — Otam ikkalamiz ikki kundan beri sizni kutamiz. Men sizga salaqlit bermayman. Chin so'zim, siz o'ylamang.... Ertaga ta'tilimning so'ngi kuni. Men Moskvaga instituga jo'nab ketaman. Faqat otam....

— Otangizga nima bo'ldi? — xavotirlanib so'radi Muravyov.

— Umi, botanik va rosa mahmada, — javob berdi Jenya. — Biroq kecha u bo'lar-bo'limas gaplar bilan boshingizni qotirmaslikka chin so'z berdi. Bilmadim, so'zida tura oladimi? To'g'risi, tura olish qiyinroq-da...

— Nega bunday deyapsiz? — so'radi Muravyov.

Jenya Muravyov bilan yonma-yon borardi. U chang'isini yelkaga tashlab olib oldinga qarab turardi. Uning ko'zlarini va chang'isining silliq keng bukilgan uchlari xira nur yaltirardi. Muravyov hayron bo'ldi: bu nur qayqdandan chiqdi? Atrofdagi dalalar bo'ylab tun o'z sepini yoygan bo'lsa. Keyinchalik Muravyov bu avval o'ylagani qorning aksi emas, balki katta ikki qavatlari dalahovlining keng yorug' derazalari aksi ekanligini sezib qoldi. Ular hovliga yaqinlashib qolgan edilar.

— Ha, nega gapirmsandan turolmas ekan? — yana so'radi Muravyov.

— Nima desam ekan... — bo'shashib javob berdi Jenya. — Men, masalan, dengiz kemasi qanday qilib qurilishini yaxshi tushunaman. Yoki tikuvchining barmoqlari orasidan nafis matoning chiqishini. Kitoblar qanday qilib yozilishini esa aslo tushunmayman. Otam ham buni tushunmaydi.

— Ha-a, — gapni cho'zdi Muravyov, — bu to'g'rida yo'lmaya-yo'lni gaplashib bo'limaydi.

(Davomi keyingi sonida).

Nasriddinov Dadaxon Komiljonovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha "Olyi harbiy ta'limgiz fizika fani mazmunini takomillashtirish (Yong'in xavfsizligi instituti misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdp-kengash@umail.uz

Shamsiyeva Zulfiya Ilhomjon qizining 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Semizlik kuzatilgan homilador ayollarda homiladorlik va tug'ruqni olib borish taktikasini ishlab chiqish (tibbiyot fanlari)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisolashitirligun akusherlik va ginekologiya ilmiy-amalii tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020.Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-avgust kuni soat 14:00dagи majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.
Tel/faks: (71) 262-41-99; e-mail: obs-gyn@mail.ru

Mirzayeva Nodira Abduxamidovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish metodikasi" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdp-kengash@umail.uz

Norbo'tayev Xo'shoq Bobonazarovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya) ixtisosligi bo'yicha "Maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlari misolida)" mavzusidagi (Pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-avgust kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Babamuratov Bekzod Ergashevichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida sellyuloz, karbamat olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-avgust kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Mullayev Dilshod Axmatovichning 03.00.09 — Umumiy genetika (biologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston bug'doy dalalarida tarqalgan zang zambrug'larini populatsion strukturasini o'rganish" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-avgust kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz ko'chasi.
Tel/faks: (71) 264-22-30, 264-79-85, 264-23-90; e-mail: igabr@akademy.uz
e-xat: genetika.uz

Raviyajon Abdullayevaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Nemis-o'zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, tarraqiyot bosqichlari va ilmiy asoslari" (adabiy aloqa, tarjima va ta'sir masalalari) mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Pirnazarov G'ułomjon Nurboboyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lomitlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishning zamonaliv texnologiyalari (oliy ta'lim muassasalarini ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi misolida)" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-avgust kuni soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Atayeva Nilufar Saliyevnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida bank-moliya terminlarining leksik-semantik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Sidorova Irina Petrovnaning 04.00.06 — Geofizika. Foydalı qazilmalarini qidirishning geofizik usullari ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston ma'danli mintaqalari litosferasining tuzilishi xususiyatlari" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Seismologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-avgust kuni soat 10.00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (71) 241-51-70, 241-74-98; e-mail: seismologiya@mail.ru

Gulnoza Toshmurod qizi Amonovaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Jätmoysi-siyosiy leksikaning lingvokulturologik aspekti (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-avgust kuni 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, (71) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Aziza Komilovna Axmedovaning 10.00.06. — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "XX asr amerika va o'zbek realistik romanlarida ideal qahramon obraz (Sinkler Lyuising "Erousim" va Pirimkul Qodirovning "Uch ildiz" asarlari misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-avgust kuni 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Hojiyeva Zulfiya O'ktamovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lomitlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Didaktik tizimni modellashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini insonparvarlashish (boshshich 'ich sinif misolida)" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Suyarov Akram Musayevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lomitlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Didaktik tizimni modellashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini insonparvarlashish (boshshich 'ich sinif misolida)" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litsey tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2017-yil 15-iyundagi qaroriga binoan Aliqulov Abror Akmal o'g'liga berilgan L № 314834 raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti jamoasi o'zining yarim asrdan ko'proq mehnat faoliyatini yoshlar ta'limgiz tarbiyasiga bag'ishlagan us-toz, pedagog, texnika fanlari doktori, professor

Shavkat MIRKOMILOVning

vafot etganligi munosabati bilan oila a'zolariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

Asr bilan tenglashayotgan "Ma'rifat"im!

Kalq ziyorilari nashri... "Madaniy inqilob", "O'qituvchilar gazetası" va ottiz yildan buyon "Ma'rifat" nomi bilan millionlab shogird tayyorlagan, torn mainoda, ustozi deya e'tirof etishga haqli bolganimiz, sevimli gazetam xususida so'z aytmoqchiman-u, qalbimni hayajon chulg'ab olganidan fikrlarim tizqinini qoldan boy bergandekman: go'yo qolimda mikrofon ushlab sahnada turibman...



O'ylab qarasam, gazetani mustaqil o'qiy boshlaganimda beshinchi sinf o'quchisi edim. Yashash manzilimiz respublikamizning cheklar hududlaridan biri bo'lishiga qaramasdan muallim-onam uchun poytaxtdan tashrif buyuradigan gazetani o'qisam-da, uqmasam ham varaqlab chiqish uchun pochtachining kelishimi kutardim. Muallim-onajonim gazetani mutolaa qilish bilan cheklamasdi. Qalin daftariqa gazetadan nimalarnadir ko'chirib ham borardi. Dars stolining ustida gazeta taxlamli alohida o'rinn olgandi. O'qituvchi bo'lishimga, bir tomonidan, onamning kasbiga havas qilganim sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomonidan bolalaracha xayolimda o'qituvchi bo'lishim uchun hamma narsa tayyor edi-da: huv anavi dars stolining ustidagi gazeta-jurnal taxlamlari, kitob javoni liq to'la kitoblar, shurnali o'qiyman-u, onamga o'xshab eng yaxshi muallim bo'laman!

Orzularim maqsadimga aylandi. Qarangki, maqsadim sari odimlar ekanman, ravon yo'lgan tushib olishimga ham "Ma'rifat"im ustozlik qildi. Hozirgi repetitor vazifasini bajargan desam ham mubolog'a qilmagan bo'laman. Birinchini test savollari bilan "Ma'rifat" tanishtirgan.

Birinchini marta 2016-yili "Til va adabiyot ta'limi" jurnalining avgust sonida metodik tavsiyaviy mazmundagi maqolam nashr etilgandi. So'ng 30-sentabr kuni onam haqida "Onanga o'xshagim keladi" mavzusida yozgan bitiklarim gazeta sahifasidan joy oldi. Quvonchim cheksiz, ayniqsa, onajonim juda ham xursand bo'lganda! Katta dovondan o'tgandek his qilganman o'zimni. Shundan keyin ketma-ket maqola yuborishga jur'at topganman. Maqolalarimning gazeta-jurnalda nashr etilishi doimo ma'naviy kuch bag'ishlaydi...

(Yana bir gapni aytmasam bo'lmas. Lekin bu qulogqa aytildigani edi-da, ha, mayli. Tahririyatga yuborgan maqolalarim gazeta va jurnalda bosilgach, o'zim yuborgan "original" nusxasi bilan solishtirardim. Ko'p va xo'b xato qilganmani ko'rib har bir jumlanli tahlil qilib chiqardim. Tan olmasdan ileyim ham yo'q: bu nashrlar meni qaytadan o'qitdi, o'rgatdi! Hamon o'qityapti, o'rgatayti....).

Bugungi kasbiy faoliyatimda "Ma'rifat" o'zining qimmatli o'miga ega nashrlardan biridir. Bunga juda ko'p asoslarim bor: gazeta orqali ta'lim-tarbiyaga oid "tandirdan yangi u兹ilgan" ma'lumotlar, metodik yordam, tizimga oid tahsiliy maqolalar — barcha-barchasi uzlusiz malaka oshirib borishimda eng birinchini ko'makchi. Ayniqsa, respublikamiz bo'yab fidoyi, tajribali, mahoratlari ustozlar bilan tajriba almashish kasbiy hayotda bir xillikdan yiroq bo'lishga undaydi.

Bilasizmi, hamkasb, gazetamida "gazetamiz" deyishga haqliman-a, axir o'qituvchiman) maqolalarim chiqa boshlagach, kasbiy faoliyatida ham ijobji o'zgarishlar sezilarli darajada ro'y bera boshladi. Birinchini navbatda, timinsiz izlanishga undadi. Buning natijasida, darslarimiga yangidan yangi ta'lim texnologiyalarini olib kirishni istadim. Tanlovarda ishtirot etishimda o'rganganlarim va o'rganayotganlarim katta yordam beryapti. Tayanch maktab treneri kabi mas'uliyatlari vazifaning yuklatilishi ham ta'lim nashrlarining ishonchi, e'tibori hamda qo'llab-quvvatlashi ortidan deb o'yayman.

Chunki ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga osdirishdagi kichik-kichik mehnatlarimiz yuksak baholandi. Masalan, birinchini marta "Asar tilini o'rganamiz" metodik-tavsiyaviy mazmunda maqolani tufayli mavsumiy tanlovda g'olib bo'ldim. O'z navbatida, g'oliblik navbatdagini tanlovda dadillik bilan ishtirot etishga yo'l ochdi. Ya uyqori natijalar nasih etdi. Kalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdirm etilgan "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'lishimda ta'lim nashrlarining hissasi cheksiz! Bundan tashqari, o'qituvchilarim "Ma'rifat" kitobxonini tanloving faol ishtirotchilar bo'lish qatorida badiiy kitoblarga mehr qo'ydi. Mutolaa sirlarini o'rgandi. O'zingizdan ham shogirdlaringiz yutug'ini ko'rish yanada totli ekan. Ana shunday zavqni ularshgan, shogirdlarimga ham ustozlik qilayotgan "Ma'rifat" gazetasi, haqida har qancha so'zlasam oz. Bir so'z bilan aytganda, ustozlikning fidoyilikka, mahoratlilikka yo'g'rilgan nozik sirlaridan "Ma'rifat"ning mahorat maktabida voqif bo'ldim!

"Ma'rifat"im, o'z gazetxoningga ega bo'lgan kuningning 90 yillardiga bir mushtariyning, shogirding sifatida yana bir so'rovimni qabul qilgin:

Xalq ta'limi ravnraqi yo'lida ko'p asrlar ziyyolilar hammaslagi bo'lgan. Onamni topib bor-ganindek, men bilan hamnafas bo'lganindek, xalq farzandiga ta'lim-tarbiya berayotgan har bir o'qituvchining uyiga, maktabiga kirib borgin.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o'qituvchisi

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kolibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'lini —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



Millat ziyorilari gazetasi "Ma'rifat" jamoasining nufuzli "Oltin qalam" XV milliy mukofotining matbuot yo'nalishida joriy yilgi g'olib deb tan olinishi hammamizning ko'nglimizni ko'tardi, omavviy axborot vositalari, ijtimoiy taromoqlarni deyarli bir xil e'tirof: "mukofot egasiga berilibdi", "munosib tanlov", "tirishqoq muharrir mehnatining natijasi bu", "chin mehnatning munosib rag'batisi", "Oltin qalam" haqiqiy sohiblariga berilibdi", "haqiqat g'alaba qilibdi", xullas, "munosibsiz...", "loyiq nashr..." kabi olqishlar larzaga keltirdi.



Millat ziyorilari ma'rifati, ma'naviyati ko'zgusi

Gazetaning mehnatkash va sabotli bosh muharriri, taniqli ijodkor, xalqparvar, millatparvar ziyorli, hamisha hozirjavob bo'lgan Husan Karvonli bu e'tiroflarga minnatdorchilik bildirishga ulgurolmay qoldi va "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi sahis-fasida barchaga umumiy qilib bitta post qoldirdi: "Ma'rifat" — bugun yoki kecha paydo bo'lgan gazeta emas! 90 yillik tarixga ega, o'ziga xos brenda aylangan gazeta! Necha-necha yosh ijodkorlarga ijodiy laboratoriya vazifasini o'tagan gazeta! "Oltin qalam" muborak bo'lsin, muhtaram ziyyolilar, do'star, bizni qo'llab-quvvatlagan birodalar!"

Ha, "Ma'rifat" chindan ham bugun yoki kecha paydo bo'lgan gazeta emas. Hozir uning tarixi haqida gapirib o'tirmayman, ammo salkam bir asr davomida millat ziyyolilar, o'qituvchilar, ma'rifatparvarlari uchun asosiy minbar hisoblangan ushbu gazeta va uning jamoasi bosib o'tgan sharafli yo'l har qancha e'tirofga arzyidi. U nafaqat necha-necha yosh ijodkorlarga ijodiy laboratoriya vazifasini o'tadi, yana yosh muallim va murabbiylar uchun katta mahorat maktabi vazifasini o'tadi, necha-necha yosh olimlarni ilmiy ja'moatchilikka tanitdi.

Esimda, 2013-yili gazetaning 76-sonida "Uzluksiz ta'limda ona tiliga doir bilimlar uzviyligi" nomli maqolam bosildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay "Ma'rifat" gazetasida ushbu maqolam uchun pul mukofoti berilibi, gazetanining faxriy oryol'i bilan taqdirlangan haqida e'lon bosildi. Mukofot emas, mening shu kichkina ishim "Ma'rifat"dek matbuotning eng oldi nashri tomonidan e'tirof etilishi menga katta

quvonch bag'ishladi. Shundan kechin milliy til, milliy yozuv, ona tili ta'limi muammolariga bag'ishlangan bir qancha maqolalariga gazetada bosildi. "Ma'rifat" va uning jonkuyar, tinib-tinchimas jamoasi bilan hamkorligimiz mustahkmlana bordi. Jamoadagi ijodiy muhit, Mahmud Sa'diydek taniqli journalist, Bahodir Joyliyev, Husan Nishonov, Furqat Alimardon kabi qalami o'tkir ijodkorlar bilan yaqidan tanishdim. Gazetada bosilgan maqolalarimni Respublika ta'lim markazidagi ona tili ta'limi bo'yicha mas'ul taniqli metodistlar, "Ona tili" darsligi mualliflari, tilshunos olimlar, xususan, Xalq ta'limi a'lochisi Sharofat Toshmirzayeva, samarcandlik ona tili ta'limi jonkuyar, fidoyi ustoz Shodiyor To'rayev (Ollo rahmat qilsin) va sohaning bir qancha taniqli vakillari bilan bog'ladı. Ochig'i, ich-ichimdan shunday muhitda, shunday taniqli gazetada ishlashni orzu qilganman.

Bugungi kunda gazeta millat ziyyolilariga gazetasi sifatida, haqiqatiga ham, brenda aylandi. "Ma'rifat" men uchun katta maktab, yuksak minbar, ilmiy va pedagogik qarashlarimni muhokamadan, aprobatsiyadan o'tkazadigan maydon vazifasini o'tadi. Shonli va sharafli 90 yillik "o'zini nishonlayotgan millat ziyyolilariga ma'risati, ma'naviyati ko'zgusi sevimli "Ma'rifat"imni va uning aksariyat bosma nashrlar tanazzulga yuz tutayotgan XXI asrda o'z kasbiga sodiq qolib, timinsiz izlanayotgan, o'zlar uchun yangi-yangi qirralar ochayotgan jamoasini samimiy qutlayaman. Millat uchun ma'rifat ushish va ziyo tarqatishdan char-chamang.

Bashorat BAHRIDDINOVA,
Qarshi davlat universiteti "O'zbek
tilshunosligi" kafedrasи mudiri,
filologiya fanlari doktori

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Olyi va o'rtal maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrdan 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4774. Tiraji 7470.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qo'zog'ichimli A-3. Bahosi sotuvda erkin narxa.

"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.com

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.